BUXORO VILOYATI SHOFIRKON TUMAN HOKIMINING QARORI

201100, Shofirkon tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 4-uy. Tel: (365) 502-20-04, faks: 502-25-47, e-mail: info@shofirkon.uz, shofirkon.t@exat.uz

2022 - yil 30 - sentabr 401-2-41-Q/22 Shofirkon tuman hokimligi

Yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

Shofirkon tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7- moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari”ga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.Shofirkon tumani, hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2.Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ismoilov va tuman yo’llardan foydalanish unitar korxonasi direktori F.Haydarovga yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari M.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.F.Sharopov**